Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

UO‘K 378.147:37.034

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MA’NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI VA METODIK TIZIMI

Atamuratova Dilafruz Saparboyevna
Urganch RANCH texnologiya universiteti, magistrant
e-mail: Jonybek111t@gmail.com
, +998(97) 451-82-84
https://doi.org/10.5281/zenodo.24391161

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy madaniyati tushunchasining mazmuni aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi asosida aniqlashtirilgan. Ma’naviy madaniyatning kognitiv-ma’rifiy, motivatsion-aksiologik va refleksiv komponentlaridan iborat tuzilmaviy modeli, uni rivojlantirish tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda interfaol metodlar, refleksiv kundalik va pedagogik amaliyotga tayangan metodik tizim taklif etilgan. Diagnostika uchun 10 bandli so‘rovnoma va refleksiv kundalikni baholash mezonlari ishlab chiqilib, 69 nafar 3-kurs talabasida dastlabki diagnostika o‘tkazilgan; talabalarning 46–50 foizi past darajada ekanligi aniqlangan.
Kalit so‘zlar: ma’naviy madaniyat, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, aksiologik yondashuv, refleksiya, refleksiv kundalik, pedagogik shart-sharoit, metodik tizim, keys-stadi.

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье на основе интеграции аксиологического, компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного и рефлексивного подходов уточнено содержание понятия «духовная культура будущего учителя начальных классов». Предложена структурная модель духовной культуры, включающая когнитивно-просветительский, мотивационно-аксиологический и рефлексивный компоненты, а также принципы, педагогические условия и методическая система её развития, опирающаяся на интерактивные методы, рефлексивный дневник и педагогическую практику. Разработаны анкета из 10 пунктов и критерии оценки рефлексивного дневника; начальная диагностика 69 студентов 3-го курса показала, что 46–50 % из них находятся на низком уровне.
Ключевые слова: духовная культура, будущий учитель начальных классов, аксиологический подход, рефлексия, рефлексивный дневник, педагогические условия, методическая система, кейс-стади.

Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

AN INTEGRATIVE MODEL AND METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING THE SPIRITUAL CULTURE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. The article clarifies the concept of the spiritual culture of future primary school teachers by integrating the axiological, competency-based, person-centred, activity-based and reflective approaches. A structural model comprising cognitive-educational, motivational-axiological and reflective components is proposed, together with the principles, pedagogical conditions and a methodological system for its development based on interactive methods, a reflective diary and teaching practice. A 10-item questionnaire and assessment criteria for the reflective diary were developed; a baseline diagnosis of 69 third-year students showed that 46–50 % of them were at a low level.

Keywords: spiritual culture, future primary school teacher, axiological approach, reflection, reflective diary, pedagogical conditions, methodological system, case study.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolaning bilim olishga munosabati, mehnatsevarligi, mas’uliyati, o‘zgalarga hurmati va axloqiy me’yorlar haqidagi dastlabki barqaror tasavvurlari shakllanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi o‘qituvchining so‘zidan ko‘ra uning xatti-harakatiga ko‘proq taqlid qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining baholashdagi xolisligi, bolaga munosabati, muomala uslubi va kundalik xulqi ta’lim mazmunining yashirin, ammo kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi tarkibiy qismiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakteri ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida belgilangan [1]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida yosh avlodning intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan har tomonlama kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [2]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirishni [3], Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi esa ma’naviy tarbiyani ta’limning barcha bosqichlarida izchil tashkil etishni nazarda tutadi [4]. Bu vazifalarning amalga oshishi bevosita pedagog shaxsining ma’naviy madaniyatiga bog‘liq.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash ko‘proq metodik bilim va ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan. Ma’naviy madaniyat esa ko‘pincha o‘quv jarayonining o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan natijasi sifatida qaraladi. Natijada uni maqsadli rivojlantirishning yaxlit modeli, pedagogik shart-sharoitlari va diagnostika vositalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Talaba pedagogik etika qoidalarini bilishi, biroq amaliyotda o‘quvchi xatosiga yoki ota-ona e’tiroziga qadriyatlarga tayangan holda munosabat bildira olmasligi mumkin. Bilim bilan xulq o‘rtasidagi ana shu uzilish tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning integrativ modeli va metodik tizimini nazariy asoslash hamda uning diagnostika vositalarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston pedagogikasida ma’naviy madaniyat muammosi asosan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy tarbiya hamda o‘qituvchining kasbiy shakllanishi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. M.Quronov milliy tarbiyani ijtimoiy-tarixiy va qonuniy jarayon sifatida talqin qilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyaning yetakchi mazmuni deb biladi [5]. O.Musurmonova tadqiqotlarida ma’naviy madaniyat shaxs tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi muammolari bilan uzviy bog‘langan. N.A.Muslimov kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy shakllanishini

tadqiq etib, pedagogik faoliyatning konstruktiv, kommunikativ, gnostik va tashkiliy tarkibiy qismlarini asoslab bergan [6]. J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonov pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini ishlab chiqib, ta’lim jarayonini kafolatlangan natijaga yo‘naltirish g‘oyasini ilgari surgan [7].

V.A.Slastenin va hammualliflari pedagogik faoliyatni qadriyatli va ijodiy faoliyat sifatida ko‘rib chiqadi, o‘qituvchi shaxsining aksiologik pozitsiyasini kasbiy tayyorgarlikning o‘zagi deb hisoblaydi [8]. Xorijiy tadqiqotlarda D.A.Shyon “refleksiv amaliyotchi” konsepsiyasini ishlab chiqib, mutaxassisning kasbiy o‘sishi faoliyat jarayonida va undan keyin o‘z harakatlarini tahlil qilish orqali kechishini ko‘rsatgan [9]. D.A.Kolbning tajribaviy ta’lim sikli (aniq tajriba – refleksiv kuzatish – mavhum tushunchalar – faol tajriba) nazariy bilimni amaliy xulqqa aylantirish mexanizmini tushuntiradi [10]. T.Likona xarakter tarbiyasini axloqiy bilish, axloqiy his qilish va axloqiy harakatning birligi sifatida talqin etadi [11], L.S.Vigotskiy esa oliy psixik funksiyalarning ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali shakllanishini asoslagan [12].

Tahlil ko‘rsatadiki, mazkur yondashuvlarning har biri ma’naviy madaniyatning muayyan jihatini yoritadi, biroq alohida olinganda bu murakkab hodisani to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Aksiologik yondashuv qadriyatlar tizimini, kompetensiyaviy yondashuv ularning amaliy namoyon bo‘lishini, refleksiv yondashuv esa o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmini ochib beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga nisbatan ushbu yondashuvlarni yagona modelga birlashtirish masalasi hali yetarli darajada hal etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik, falsafiy va psixologik adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, pedagogik modellashtirish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, refleksiv kundaliklar mazmunini tahlil qilish hamda matematik statistika (Pirsonning χ^2 mezoni) metodlaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar qabul qilindi.

Dastlabki diagnostika Urganch RANCH texnologiya universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining 3-kurs talabalari orasida o‘tkazildi. Unda ikki akademik guruh ishtirok etdi: 24-01 guruh (tajriba guruhi, 35 nafar) va 24-02 guruh (nazorat guruhi, 34 nafar), jami 69 nafar talaba. Talabalarning ma’naviy madaniyati 10 bandli so‘rovnoma yordamida aniqlandi. Har bir band besh pog‘onali Likert shkalasi [13] bo‘yicha baholandi: 5 – “to‘liq qo‘shilaman”, 4 – “qo‘shilaman”, 3 – “qisman qo‘shilaman”, 2 – “qo‘shilmayman”, 1 – “mutlaqo qo‘shilmayman”.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Tushunchaning mazmuni. Adabiyotlar tahlili asosida tadqiqotda quyidagi ishchi ta’rif qabul qilindi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy madaniyati – milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy bilimlar va pedagogik etika me’yorlarini ongli o‘zlashtirib, ularni kasbiy e’tiqodga aylantirish, bola sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat, adolat, halollik, bag‘rikenglik va mas’uliyatni pedagogik munosabat va xulqda barqaror namoyon qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash orqali uzluksiz ma’naviy-kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Ta’rifning o‘ziga xosligi shundaki, unda ma’naviy madaniyat bilimlar majmui sifatida emas, balki bilimdan xulqqa o‘tish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon quyidagi ketma-ketlikda kechadi: **bilim → anglash → qadrlash → e’tiqod → pedagogik faoliyat → refleksiya.** Zanjirning birorta bo‘g‘ini uzilsa, masalan, talaba qadriyatni bilsa-yu, uni amaliy vaziyatda qo‘llamasa, ma’naviy madaniyat to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

2. Yondashuvlar integratsiyasi. Har bir metodologik yondashuvning modeldagi o‘rni 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Metodologik yondashuvlarning integrativ modeldagi o‘rni

Yondashuv	Asosiy g‘oya	Modeldagi o‘rni
Aksiologik	Ma’naviy madaniyatning o‘zagi – qadriyatlar tizimi	Mazmun: qadriyatlar ro‘yxati, ularni e’tiqodga aylantirish
Kompetensiyaviy	Bilim kasbiy vazifani hal qilish vositasi bo‘lishi kerak	Natija: kommunikativ va refleksiv kompetensiyalar
Shaxsga yo‘naltirilgan	Talabaning ichki motivatsiyasi va individual rivojlanishi	Shart: hurmat va ishonchga asoslangan muhit
Faoliyatli	Qadriyat faoliyat orqali e’tiqodga aylanadi	Metodlar: keys-stadi, amaliyot, loyiha
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish – rivojlanish manbai	Vosita: refleksiv kundalik, o‘z-o‘zini baholash
Integrativ	Yondashuvlar alohida emas, birgalikda qo‘llanadi	Fanlararo integratsiya, yaxlit tizim

3. Tuzilmaviy model. Ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning integrativ modeli maqsad, yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar, mazmun-metodik blok, komponentlar, diagnostika va natija bloklaridan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning integrativ modeli

Modelning o‘zagini ma’naviy madaniyatning uchta komponenti tashkil etadi. Ularning mazmuni, ko‘rsatkichlari va diagnostika vositalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Ma’naviy madaniyatning komponentlari, ko‘rsatkichlari va diagnostika vositalari

Komponent	Mazmuni	Ko‘rsatkichlari	Diagnostika vositasi
Kognitiv-ma’rifiy	Ma’naviy-axloqiy, pedagogik-etik bilimlar va milliy-madaniy meros haqidagi tasavvurlar	Tushunchalarni bilishi; pedagogik vaziyatni qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qila olishi	Suhbat, keys-topshiriq, so‘rovnoma (1, 8-bandlar)

Komponent	Mazmuni	Ko‘rsatkichlari	Diagnostika vositasi
Motivatsion-aksiologik	Qadriyatlarga ijobiy munosabat, kasbiy e’tiqod, pedagoglikka ichki motivatsiya	Adolat, halollik, bag‘rikenglik, mas’uliyatni qadrlashi; ma’naviy tadbirlarga intilishi	So‘rovnoma (2, 5–7, 9-bandlar), kuzatish
Refleksiv	O‘z xulq-atvori va pedagogik qarorlarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish	Xatoni tan olishi; rivojlanish rejasini tuza olishi; ijobiy namuna bo‘lishga intilishi	Refleksiv kundalik, so‘rovnoma (3, 4, 10-bandlar)

4. Tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlar. Metodik tizim oltita tamoyilga tayanadi: insonparvarlik (talaba shaxsi va qadr-qimmatini e’tirof etish), qadriyatga yo‘naltirilganlik (har bir mashg‘ulot mazmunida ma’naviy qadriyatni ajratib ko‘rsatish), faollik (talabani bilimni mustaqil yaratuvchi subyekt sifatida ishtirok ettirish), integrativlik (ma’naviy mazmunni barcha kasbiy fanlarga singdirish), uzluksizlik (auditoriya, amaliyot va mustaqil ta’limning izchilligi) va refleksivlik (har bir faoliyat yakunida o‘z-o‘zini tahlil qilish).

Tizimning samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. **Birinchidan**, qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti yaratiladi. Unda shaxsga hurmat, pedagogik adolat, ochiq muloqot, bag‘rikenglik va ijobiy psixologik iqlim ustuvor bo‘ladi. **Ikkinchidan**, fanlararo integratsiya ta’minlanadi. Pedagogikada pedagogik etika va tarbiya nazariyasi, psixologiyada empatiya va hissiy intellekt, pedagogik mahoratda pedagogik takt va nutq madaniyati, boshlang‘ich ta’lim metodikalarida darsning tarbiyaviy imkoniyatlari o‘zaro bog‘langan holda o‘rganiladi. **Uchinchidan**, pedagogik amaliyot maqsadli tashkil etiladi: u faqat dars o‘tish joyi emas, balki talaba sinf jamoasi, ota-onalar va baholash jarayoni bilan bevosita ishlaydigan “ma’naviy rivojlanish laboratoriyasi”ga aylantiriladi. **To‘rtinchidan**, refleksiv faoliyat tashkil etiladi: har bir mashg‘ulot va amaliyot kunidan so‘ng talaba o‘z faoliyatini baholaydi, xatolarini aniqlaydi va keyingi qadamlarini belgilaydi.

5. Metodik tizim. Metodlar ma’naviy madaniyatning muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qilishiga ko‘ra tanlandi (3-jadval).

3-jadval

Metodik tizimdagi asosiy metodlar va ularning vazifasi

Metod	Mazmuni (misol)	Rivojlantiriladigan sifat / komponent
Keys-stadi	“Sinfdagi ikki o‘quvchi o‘rtasida nizo chiqdi”, “Ota-ona baho natijasidan norozi” kabi real vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish	Axloqiy tanlov, pedagogik qaror / kognitiv-ma’rifiy
Muammoli vaziyat	Muammoni aniqlash → sababini topish → qadriyatlarga asoslangan yechim ishlab chiqish	Pedagogik tafakkur, oldindan ko‘ra bilish / kognitiv-ma’rifiy
Rolli o‘yin	Talaba o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, maktab direktori rolini ijro etadi	Empatiya, pedagogik takt, bag‘rikenglik / motivatsion-aksiologik
Debat, munozara	“Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining eng muhim ma’naviy fazilati qaysi?” kabi masalalar muhokamasi	O‘z fikrini asoslash, o‘zgani tinglash / motivatsion-aksiologik

Metod	Mazmuni (misol)	Rivojlantiriladigan sifat / komponent
Loyiha metodi	“Mehr maktabi”, “Milliy qadriyatlar haftaligi”, “Sinfda do‘stlik muhiti” loyihalari	Fuqarolik pozitsiyasi, hamkorlik / motivatsion-aksiologik
Refleksiv kundalik	Har bir mashg‘ulot yoki amaliyot kunidan keyin 12 savolli kundalik to‘ldiriladi	O‘z-o‘zini baholash, rivojlanish rejasi / refleksiv

Ushbu metodlar ma’ruza, seminar, trening, davra suhbati, mahorat darsi, pedagogik amaliyot, ko‘ngillilik faoliyati, ijodiy loyiha, mustaqil ta’lim va mentorlik shakllarida qo‘llanadi. Vosita sifatida darslik va badiiy asarlar bilan bir qatorda elektron platformalar, multimedia taqdimotlari, onlayn forumlar va QR-kodli topshiriqlardan foydalaniladi. Interfaol metodlardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “FSMU”, “Insert”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Think–Pair–Share”, “Jigsaw” va “Sinkveyn” mashg‘ulot bosqichlariga mos ravishda tanlanadi.

6. Diagnostika vositalari. So‘rovnomaning 10 ta bandi uchta komponentni qamrab oladi. Unda qadriyatlarga amal qilish, adolatli qaror, muloqotda pedagogik odob, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy mas’uliyat, bag‘rikenglik, ma’naviy tadbirlardagi faollik, o‘z ustida ishlash, halollik va ijobiy namuna bo‘lish baholanadi. Umumiy ball 10 dan 50 gacha bo‘lib, ma’naviy madaniyatning to‘rt darajasi ajratildi (4-jadval).

4-jadval

So‘rovnoma natijalarini baholash mezoni

Jami ball	Daraja	Tavsif
41–50	Yuqori	Ma’naviy madaniyat barqaror shakllangan, talaba qadriyatlarni pedagogik faoliyatda ongli namoyon etadi
31–40	O‘rta	Asosiy ko‘rsatkichlar shakllangan, ayrim kompetensiyalarni rivojlantirish zarur
21–30	Past	Ayrim tarkibiy qismlar yetarli rivojlanmagan, maqsadli pedagogik ishlar talab etiladi
10–20	Juda past	Tizimli pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur

Refleksiv kundalik beshta mezon bo‘yicha baholanadi: faoliyatni tahlil qilish, pedagogik vaziyatni baholash, ma’naviy xulosa chiqarish, o‘z-o‘zini baholash va kelgusidagi rivojlanish rejasini belgilash. Har bir mezon uchun ko‘pi bilan 10 ball beriladi. Jami 43–50 ball yuqori, 34–42 ball o‘rta, 25–33 ball past, 0–24 ball juda past daraja deb baholanadi. Kundalikda talaba o‘zi namoyon qilgan fazilatlarni ham belgilaydi: halollik, adolat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, pedagogik takt, kasbiy mas’uliyat va boshqalar. Bu o‘qituvchiga talabaning ma’naviy rivojlanish dinamikasini individual kuzatib borish imkonini beradi.

7. Dastlabki diagnostika natijalari. So‘rovnoma natijalari asosida talabalar yuqori, o‘rta va past darajalarga taqsimlandi (5-jadval).

5-jadval

Talabalar ma’naviy madaniyatining dastlabki darajalari

Guruh	n	Yuqori, n (%)	O‘rta, n (%)	Past, n (%)
24-01 (tajriba)	35	5 (14)	14 (40)	16 (46)
24-02 (nazorat)	34	4 (12)	13 (38)	17 (50)

Guruh	n	Yuqori, n (%)	O‘rta, n (%)	Past, n (%)
Jami	69	9 (13)	27 (39)	33 (48)

Ikkala guruhda ham talabalarning qariyb yarmi past darajada, yuqori darajadagilar esa 12–14 foizni tashkil etdi. Guruhlar taqsimotidagi farq statistik ahamiyatga ega emas ($\chi^2 = 0{,}16$; erkinlik darajasi 2; $p = 0{,}92$). Demak, guruhlar boshlang‘ich holatda teng kuchli bo‘lib, ularni keyingi qiyosiy tadqiqot uchun asos sifatida olish mumkin. Kuzatish va suhbatlarda talabalarning 45 nafari (65 %) berilgan materiallar asosida mustaqil ishlashda, 36 nafari (52 %) o‘zaro kommunikativ muloqotda va vaqtni to‘g‘ri taqsimlashda qiynalgani aniqlandi.

Bu natijalar ma’naviy madaniyatning motivatsion-aksiologik va refleksiv komponentlari, ayniqsa, qadriyatni amaliy xulqqa aylantirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shu bois metodik tizimda keys-stadi, rolli o‘yin, refleksiv kundalik va maqsadli pedagogik amaliyotga ustuvor o‘rin berildi. Taklif etilgan tizimning samaradorligini statistik asoslash uchun talabalarning individual ballari bo‘yicha takroriy o‘lchov, yetarli davomiylikdagi shakllantiruvchi bosqich hamda guruhlararo farqni baholovchi standart mezonlar (Styudentning t, Mann–Uitni U, Pirsonning χ^2 mezonlari) talab etiladi. Bu tadqiqotning keyingi bosqichi vazifasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy madaniyati bilimlar majmui emas, balki “bilim → anglash → qadrlash → e’tiqod → pedagogik faoliyat → refleksiya” zanjiri orqali shakllanadigan integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir. Uni rivojlantirishda aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar birgalikda qo‘llanishi lozim.
2. Ma’naviy madaniyatning kognitiv-ma’rifiy, motivatsion-aksiologik va refleksiv komponentlaridan iborat modeli hamda har bir komponent uchun ko‘rsatkichlar va diagnostika vositalari taklif etildi.
3. Metodik tizim oltita tamoyil va to‘rtta pedagogik shart-sharoitga tayanadi: qadriyatga yo‘naltirilgan muhit, fanlararo integratsiya, maqsadli pedagogik amaliyot va refleksiv faoliyat. Bunda keys-stadi, muammoli vaziyat, rolli o‘yin, debat, loyiha metodi va refleksiv kundalik asosiy vosita hisoblanadi.
4. Diagnostika uchun 10 bandli so‘rovnoma (10–50 ball, to‘rt daraja) va refleksiv kundalikni baholashning besh mezonli shkalasi ishlab chiqildi. 69 nafar talabada o‘tkazilgan dastlabki diagnostikada ularning 46–50 foizi past darajada ekanligi aniqlandi, guruhlar boshlang‘ich holatda teng kuchli bo‘lib chiqdi.
5. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘quv jarayonida refleksiv kundalikni pedagogik amaliyotning majburiy hujjati sifatida joriy etish, kasbiy fanlar mazmuniga pedagogik vaziyatlar (keyslar) to‘plamini kiritish hamda talabalar ma’naviy madaniyati diagnostikasini har semestrda o‘tkazish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son // lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son // lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2019-yil 31-dekabr, 1059-son // lex.uz.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
6. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dokt. … diss. – Toshkent, 2007. – 275 b.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
8. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учеб. пособие. – Москва: Академия, 2002. – 576 с.
9. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
10. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
11. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.
12. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
13. Likert R. A technique for the measurement of attitudes // Archives of Psychology. – 1932. – No. 140. – P. 1–55.